

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI

“TURIZM VA MENMONXONA XO'JALIGI” KAFEDRASI

5A 610301 – “Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)” yo'nalishi  
magistratura mutaxassisligi uchun

# Малякави амалиёт бо'йича USLUBIY KO'RSATMA

Tuzuvchilar: i.f.n., dotsent Hamroyev H.R.  
i.f.n., dotsent Ibragimov N.S. Ph.D, Nurov Z.S.

Бухоро - 2021

Buxoro Davlat Universiteti, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasi dotsenti, i.f.n. Hamroyev H.R., i.f.n. dotsent Ibragimov N.S, PhD, Narov Z.S, SA610301 – "Turizm (hoiolyat turlari bo'yicha)" yo'nalishi magistratura mutaxassisligi magistrantlari uchun "Malakaviy amaliyot" bo'yicha uslubiy ko'rsatma. B.: BuxDU, 2021 yil. 27 bet.

**Annolasiya:** Uslubiy ko'rsatmada umumiy qoidalar, amaliyot o'tash muddati, mazmuni va tarkibi, amaliyot hisobotini rasmiylashtirish hamda magistrantning majburiyatlari, amaliyot hisobotini himoyaga tayyorlash va baholash tartibi, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar ko'rsatilgan.

#### TAQRIZCHILAR:

1. Bux.DU dotsenti, i.f.n. Ro'ziyev S.S.
2. BMTI "Management" kafedrasi dotsenti, i.f.n. Boboyev A.Ch.

#### Uslubiy ko'rsatma:

Buxoro Davlat Universiteti "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasi yig'ilishida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (24-sonli bayonoma, 13- fevral, 2021 yil).

#### Kiritish

Mamlakatda iqtisodiy islozoblarni shugullanish sharoitida serifs va zimma ko'rsatish talqinlarini rivojlantirishda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu shaklda malakali kadrlarni yetishtirish davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda.

#### 1. Umumiy qoidalar.

##### 1.1. Amaliyotning maqsadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ma'naviy ta'lim vazirligi tomonidan tashkil qilingan mulozimlik sharoitida kunduzgi shaklda talabiy olib borilgan magistrantlar tanlangan mutaxassisliklari bo'yicha malakaviy amaliyotini o'tashlari shart.

Magistrantlar o'z bilim doiralari yanada kuchaytirish maqsadida o'z ish joylarida mukammal faoliyat yuritishlari va jarayonni oliy darajadagi nazariy bilimlari bilan boyitib borishlari shart.

Malakaviy amaliyotini o'tashdan asosiy maqsad: turizm sohasida so'z berib borilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarni bilish, turistik korxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishish, amaliy tomondan o'z bilim doiralari yanada kuchaytirish maqsadida izlanishlar olib borish, turistik kompaniyalarda ishlash va korxonada faoliyatini yuksaltirish borasidagi amaliy bilimlarni yaxshi o'zlashtirish hamda o'quv dargohiga qaytgach amaliy jihatdan isbotlab berishlari lozim. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

\* Birinchidan: auditoriyada o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni aniq bir turistik korxonaga yoki tashkilotlarda qo'llash, turizm sohasida turoperatorlik va mehmonxona majmualari mohiyatini, ularni boshqarish usullarini o'rganish;

\* Ikkinchidan: amaliyotni o'tash jarayonida bozor iqtisodiyoti munosabatlari bilan mos keladigan me'yoriy hujjatlar, turli xildagi amaliy ko'rsatmalar, tavsiyanomalar bilan yaqindan tanishish, amaliyot o'tilayotgan turistik korxonaga yoki tashkilotlarning

moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan tanishish, xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, uni takomillashtirish, mehnat jamoasini ijtimoiy rivojlantirish borasidagi amaliy ko'nikmalarni ishlab chiqish va ularni tadbir qilib qo'yishda qatnashishi;

\*Uchinchidan: malakaviy amaliyotni o'qiyotgan har bir magistrant yakka tartibda berilgan vazifalarni rahbar-amaliyotchi va rahbar-o'qituvchi yordamida hal qilishi kerak;

\*To'rtinchidan: amaliyotni o'tash davrida magistrant, qacda amaliyot o'qiyotgan bo'lsa, shu turistik korxonada yoki firmaning iqtisodiy mexanizmlarini ishlatish, ularning samaradorligi, ishini tashkil qila bilish va boshqalarga e'tiborini qaratgan holda ayrim chet el firmalari, chet el elchixonalari bilan ishlash, turistik korxonalarida ishini tashkil qilish, turoperator va turagentlar ishlarini, marketing bo'limini boshqarish va nihoyat iqtisodiyotini ham o'rganib, ularning ko'rsatkichlarini tahlil qilishi mumkin va mavjud bo'lgan kamchiliklarni ko'rsatib, uni yaxshilash chora-tadbirlarini belgilashi kerak;

\*Beshinchidan: amaliyot davrida magistrant mustaqil ravishda turoperator faoliyatiga mos turistik dasturni ishlab chiqib, uni realizatsiya qilishga erishishi lozim;

\*Olinchidan: amaliyot yakunida har bir magistrant turoperator, turagentlar yoki korxonada o'zlashtirgan tajribasini turizm va mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish yo'nalishtirishda tahsil olayotgan magistrantlarga "Master class" usulida dars o'tish orqali namoyon etishlari kerak.

## 1.2. Amaliyotning muddati va mazmuni

O'quv rejasiga asosan "5A610301-Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)" magistratura mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan II kurs magistrantining malakaviy amaliyotini 4-semesterda o'tasahadi. Har bir bajarilgan ish bo'yicha hafta oxirida kafedra tomonidan belgilangan amaliyot rahbariga yozma hisobot berib boriladi va amaliyot oxirida umumiy hisobot taqdim etiladi.

Malakaviy amaliyotning har bir haftasi davomida magistrantlar asosan quyidagi masalalar bilan yaqindan tanishadilar:

4

-malakaviy amaliyot o'tiladigan turoperator, turagent yoki turistik korxonaning ichki tuzilishi va xo'jalik-iqtisodiy faoliyatining tahlili yuzasidan mavqifnomasi;

-turoperator yoki turagent kompaniyadan taklif etilayotgan turistik dasturlar va ko'rsatiladigan xizmatlar klassifikatsiyasi haqida ma'lumot;

- turoperator yoki turagentning mahalliy va xorijiy turistik korxonalar bilan ko'rsatiladigan xizmatlari;

- turoperator yoki turagentning moliyaviy-bухg'alari haqida;

- turoperator yoki turagentning soliq to'lash tizimining o'ziga xos xarakterlari;

- turoperator yoki turagentning statistika qo'llanmasida taqdim etilgan o'ylik hisoboti bilan tanishish.

- turoperator yoki turagentlik rahbarining bo'sh vaqtida, xodimlarning professional darajasi;

- turoperator yoki turagent yoxud turizmning veb-sahifasining tuzilishi va unda ma'lumotlarni joylashtirish ishlari jarayoni;

- mijozlar va hamkorlar bilan tuziladigan shartnomalar va kelishuvlar;

- malakaviy amaliyoti hisoboti uchun turli axborotlar va hujjatlarni to'plash, tahlil etish va xulasalash.

Amaliyot hisobotini yozishda turoperator yoki turistik korxonaning xorijiy mamlakatlardagi axborotnomalari, ma'lumotlardan foydalaniladi, ularning amaliy qismi yoritiladi.

Amaliyotning mazmuni quyidagi jadvallarda keltirilgan ishlarining mohiyatidan tashkil topadi.

## 1.3. Malakaviy amaliyotning mazmuni va tarkibi

Malakaviy amaliyot kafedrada belgilangan amaliyot rahbari tomonidan ishlab chiqilgan, kafedra mudiri tasdiqlagan kalendar ish rejasiga asosida amalga oshiriladi. Amaliyot rahbari har bir amaliyotga chiquvchi magistrantga va u borayotgan amaliyot obyekti haqida individual tarzda yondoshishi zarur. Shuningdek,

5

«Magistratning kalendar ish rejasi» aniq, maqsadli va natijaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

**Amaliyotning mamnuviy mazmuni**

**(Bajariladigan ishlar)**

|     |   |
|-----|---|
| 1.  | Turoperator yoki turistik korxonada tayinlangan rahbar va korxonada faoliyati bilan tanishish. (Amaliyot rahbari va amaliyotchi magistratning huquq va burchlari bilan puxta tanishib chiqish). Turoperator yoki turistik korxonaning (mehmonxonada turistik tashkilot, restoran) boshqaruv tizimini o'rganish. |
| 2.  | Turoperator yoki turistik korxonaning bo'limlarini o'rganish va tahlil qilish. Bo'limda yuritiladigan hujjatlar bilan tanishish va ularni yuritishni puxta o'rganish. Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish.   |
| 3.  | Turoperatorning turistlariga taklif etayotgan dasturlari bilan tanishish. Ularni tuzish tartibini o'rganish. Mustaqil ravishda turistik dastur tuzib, sayohatni amalga oshirish. Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish.  |
| 4.  | Turoperatorning statistika va soliq qo'mitasiga beradigan oylik hisoboti tartibini hamda estatof programmasida ma'lumotlarni joylashtirishni o'rganish. Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish.   |
| 5.  | Turoperator va turist hamda turoperator va hamkorlar o'rtasida tuziladigan shartnomalari bilan tanishish. Shartnoma tuzish tartibini o'rganish. Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish.   |
| 6.  | Turoperator, turagent yoki mehmonxonada veb – sahifasida ma'lumotlarni joylashtirish tartibi va dizaynini boyitish ustida ishlash. Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish.  |
| 7.  | Turoperator, turagent tomonidan sayohatning boshqarilish jarayoni va turistlar taassuroti bilan tanishish. Turistlariga murajaat madaniyati va xat yozish odobini o'rganish (Veb-sahifada amalda ishlash) mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish.   |
| 8.  | Temiryo'l qatnovlari haqida ma'lumotlar olish. Temiryo'l chiptalariga buyurtma berish va ularni sotib olish bosqichlarini o'rganish.  |
| 9.  | Avtotransport qatnovlari haqida ma'lumotlar olish, avtobus va taksi chiptalariga buyurtma berish va ularni sotib olish bosqichlarini o'rganish.   |
| 10. | Havo yo'llari reyslariga oid ma'lumotlarni qidirib topish, band qilish va xarid qilish bosqichlarini o'rganish (mahalliy aviagatnovlar).  |
| 11. | Havo yo'llari reyslariga oid ma'lumotlarni qidirib topish, band qilish va xarid qilish bosqichlarini o'rganish (xalqaro aviagatnovlar).   |
| 12. | Yangi barmo etilgan turizm ob'yektlari bilan tanishish, shartnoma imzolash bosqichlarini o'rganish.   |
| 13. | Mehmonxonalarda xona band qilish jarayonlarini o'rganish (rooming list bilan ishlash).  |
| 14. | Xizmat va takliflar kirinish. Korxonada faoliyatiga tegishli ma'lumotlar asosida amaliyot hisobotini tayyorlash.  |
| 15. | Soha faoliyatiga taaluqli me'xoriy hujjatlar bilan tanishish.   |
| 16. | Raqobatlashish strategiyasini va taktikasini o'rganish.   |
| 17. | Xodimlar ish faoliyatini raq'batlantirish tizimlarini o'rganish.  |

1-Mavzu. Turoperator, turagent yoki turistik korxonaning (mehmonxonada, turistik korxonada, restoran) boshqaruv tizimini o'rganish. (1-ilova)

**Malaka va ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari:**

Turistik korxonaning (mehmonxonada, turistik korxonada, restoran) maqsadi va vazifalari. Turoperator, turagentlikning tashkiliy tuzilmasi. Firmaning bo'limlararo tuzilmasi va ularni vazifalari.

**Mavzu bo'yicha topshiriqlar**

| №  | Turfirmada bajariladigan topshiriqlar  | Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar   |
|----|--|--|
| 1. | Turoperatorning tashkiliy tuzilmasini nazariy bilimlar asosida o'rganing.  | Turoperator, turagent yoki turfirmaning tashkiliy tuzilmasini chizing va bo'limlararo tuzilmasi orasidagi bog'liqlikni ko'rsatib bering. Firmaning tashkiliy tuzilmasini tahlil qiling va uni takomillashtirish bo'yicha o'z taklifingizni tayyorlang. |
| 2. | Nazariy bilimlarga tayangan holda aniq bir bozorga, jumladan tashqi bozorga muvaffaqiyat bilan chiqish mumkinligini o'rganing. | Amaliyot obyekti uchun marketing tadqiqotlarining tuzilmasini chizing.   |
| 3. | Turoperator, turfirmaning joriy xo'jalik faoliyatini o'rganing.  | Turoperator, turagent, turfirmaning joriy xo'jalik faoliyatini iqtisodiy, moliyaviy va boshqa jihatlardan tahlil qiling.   |

2- Mavzu. Turoperator, turagent yoki turistik korxonaning bo'limlarini o'rganish va tahlil qilish. Bo'limda yuritiladigan hujjatlar bilan tanishish va ularni yuritishni puxta o'rganish.

**Malaka va ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari:**

Turoperator yoki turistik korxonada mavjud bo'limlar bilan tanishish va ularning faoliyatini o'rganish. Qabul qilish va joylashtiruv xizmati. Mehmonxonada (restoran) joy va nomerlarni bronlashitirish tartibi va ular bilan shug'ullanuvchi bo'limlar.

Buxoro davlat universiteti  
Magistratura bo'limi  
boshlig'i A.To'rayevga  
Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedراسи  
mudiri v.b. Z.S. Nurov tomonidan

**BILDIRISHNOMA**

Iqtisodiyot va turizm fakulteti 5A610301 – Turizm faoliyat turlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi 2-kurs talabalarini o'quv reja grafigi asosida 1.02.2021 - 12.06.2021 yilgacha (21 haftalik) ilmiy amaliyotini o'tashga ruxsat berishingizni so'rayman:

| №  | Talabning familiyasi, ismi, shartli | Korxonona nomi  | Amaliyot rahbari  |
|----|-------------------------------------|---|-------------------|
| 1  | Ruziyeva Maxbuba                    | "Jahongashta tour service" MChJ   | Tadiyeva S.U.     |
| 2  | Axorova Nilufar                     | "Piligrime travel system" MChJ  | Navro'z-zoda B.N. |
| 3  | Kabilova Nigina                     | "Magic Bukhara Travel" MChJ   | Hamroyev H.R.     |
| 4  | Norov Bekosh                        | "Edem Plaza Hotel" MChJ   | Ibragimov N.S.    |
| 5  | Halimova Nigina                     | "Turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Buxoro viloyat markazi" unitar korxonasi | Hamroyev H.R.     |
| 6  | Axmedova Hiliola                    | "Piligrime travel system" MChJ  | Ro'ziyev S.S.     |
| 7  | Qurbonova Zebiniso                  | "Authentic Travel" MChJ   | Hamroyev H.R.     |
| 8  | Hafizov Abdulla                     | "Miracle Travel" MChJ   | Ro'ziyev S.S.     |
| 9  | Mitrova Dilfuza                     | "Salom" xususiy korxonasi   | Ro'ziyev S.S.     |
| 10 | Yorjyeva Farangiz                   | "Jahongashta tour service" MChJ   | Hamroyev H.R.     |
| 11 | Yuldashiev Kamol                    | "Miracle Travel" MChJ   | Ibragimov N.S.    |
| 12 | Kiyamova Maxbuba                    | Buxoro viloyat madaniyat boshqarmasi  | Ibragimov N.S.    |
| 13 | Salimova Sarvinoz                   | OO "Buxoro malikasi" MChJ   | Ibragimov N.S.    |
| 14 | Djurayeva Naifisa                   | "Authentic Travel" MChJ   | Tadiyeva S.U.     |

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedراسи mudiri v.b.:

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedراسи amaliyot bo'yicha mas'ul o'qituvchi:

Z.S. Nurov

S.K. Bozorova

**1. Amaliyotning asosiy qoidalari**

- 1.1. Magistrant amaliyotga kelguncha rahbaridan tushuntirish olish va kundalikni to'ldirishi (komandirovka guvohnomasi):
- 1.2. Magistrant korxonaga yetib kelgach, korxonaga rahbariga kundalikni taqdim etishi va amaliyot rejasini aytishi kerak. Bundan tashqari texnik xavfsizlik, yong'in falokatidan saqlanish, narsalardan foydalanish bo'yicha tushuntirish olishi va ish joyi bilan tanishishi lozim.
- 1.3. Amaliyot davrida magistrant korxonaning ichki intizomiga bo'yusinishi shart. Har qanday holatda magistrant ish joyidan chiqayotganda, bu haqda rahbarga bildirishi lozim.
- 1.4. Magistrant amaliyot xususida taqvimli reja muvofiq hisobot tayyorlaydi va korxonaga hamda oliy o'quv yurti tomonidan qo'yilgan rahbarlarning qo'shimcha ko'rsatmalariga binoan uni to'ldiradi.
- 1.5. Malakaviy ishlab chiqarish amaliyotidagi magistrant faoliyati 100 balli tizim bo'yicha baholanadi va magistrantning diplom malakasiga ta'sir etadi.

**2. Amaliyotni o'tashning taqvimli rejasini:**

| № | Qilinadigan ishlar mazmuni | Muddati | Bajarilganlik to'g'risidagi hisobot |
|---|----------------------------|---------|-------------------------------------|
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |
|   |                            |         |                                     |

Amaliyot rahbarlarining imzosi  
OO'Yu dan \_\_\_\_\_  
Korxonadan \_\_\_\_\_

3. Amaliyotni magistrantning korxonada tomonidan baholanishi

Korxonadan tayinlangan amaliyot rahbarining imzosi

Muht « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2021 yil

4. Magistrantning ish bo'yicha kafedradan amaliyot rahbarining xulosasi:

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Kafedradan yuborilgan  
amaliyot rahbarining  
imzosi

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2021 yil

#### 4. Kundalik yuritish va to'ldirish qoidasi

5.1 Amaliyotni o'tash davrida kundalik magistrantning asosiy hujjati hisoblanadi.

5.2 O'quv joylashgan shahardan tashqarida amaliyot o'tayotgan magistrant uchun kundalik komandirovka guvohnomasi hisoblanadi va magistrantning qancha muddat amaliyotni o'tganini bildiradi.

5.3 Amaliyot davrida magistrant har kuni taqvimli reja bo'yicha kun bo'yi bajarilgan ishlarni kundalikka siyob bilan qisqacha yozib borishi kerak.

5.4 Magistrant haftada bir marta kundalikni tekshirish uchun rahbariga taqdim etishi shart. Rahbar kundalikni tekshirib kamchilikni ko'rsatadi, navbatdagi topshiriqni beradi hamda magistrantning faoliyatini nazorat qilayotganligini qayd etadi.

5.5 Amaliyot tugagach magistrantning kundaligi hisobi bilan birga amaliyot rahbarlari tomonidan tekshiriladi va xulosa yozilib imzo chekiladi.

5.6 Magistrant amaliyot tugagach, to'ldirilgan kundalikni hisobot bilan birgalikda kafedraga topshirishi shart.

**Kundalik to'ldirilmasa amaliyot hisobga olinmaydi.**

7 - ilova  
Hisobot tital varag'i

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrasini

\_\_\_\_\_ "mutaxassisligi bo'yicha  
kandazgi bo'lum 2-kurs \_\_\_\_\_ guruhi

magistranti \_\_\_\_\_ ning

malakaviy amaliyoti bo'yicha

# HISOBOTI

Amaliyotning boshlanishi: \_\_\_\_\_

Amaliyotning tugashi: \_\_\_\_\_

Amaliyot o'tilgan korxonada: \_\_\_\_\_

muht

Amaliyot o'tilgan korxonadagi  
rahbar \_\_\_\_\_

Universitetdagi ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_

Buxoro - 2021

Бухоро давлат университети  
Ўқув-методик кенгаш 7-сонли  
йиғилишининг кўчирмаси

Бухоро шаҳри

23.02.2021

**КУН ТАРТИБИ:**

**4. Турли масалалар.**

**4.1.** Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси доценти, и.ф.н. Ҳ.Р.Ҳамроев, и.ф.н. Н.С.Ибрагимов ва и.ф.ф.д. З.С.Нуровларнинг 5А610301-Туризм (фаолият турлари бўйича) магистратура мутахассислиги магистрантлари учун малакавий амалиётни ўташ бўйича тайёрланган услубий кўрсатмани нашрга тавсия этиш.

**ЭШИТИЛДИ:**

**Г.Тоирова (кенгаш котибаси):** Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси доценти, и.ф.н. Ҳ.Р.Ҳамроев, и.ф.н. Н.С.Ибрагимов ва и.ф.ф.д. З.С.Нуровларнинг 5А610301-Туризм (фаолият турлари бўйича) магистратура мутахассислиги магистрантлари учун малакавий амалиётни ўташ бўйича тайёрланган услубий кўрсатмани нашрга тавсия этиш учун тайёрланганлигини маълум қилди. Ушбу услубий кўрсатма такризи: и.ф.н., доцент А.Бобоев, и.ф.н. С.Рўзиевлар томонидан ижобий баҳо берилганлигини таъкидлади. Услубий кўрсатма муҳокамаси ҳақидаги Иқтисодиёт ва туризм факультети (2021 йил 23 январь) ва Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси (2021 йил 13 февраль) йиғилиш қарори билан таништирди.

Юқоридагиларни инобатга олиб ўқув-методик кенгаш.

**ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси доценти, и.ф.н. Ҳ.Р.Ҳамроев, и.ф.н. Н.С.Ибрагимов ва и.ф.ф.д. З.С.Нуровларнинг 5А610301-Туризм (фаолият турлари бўйича) магистратура мутахассислиги магистрантлари учун малакавий амалиётни ўташ бўйича тайёрланган услубий кўрсатмани нашрга тавсия этилсин.

Ўқув-методик кенгаш раиси  
Ўқув-методик кенгаш котибаси



М.И.Даминов  
Г.И.Тоирова

Кўчирма аслига туғри

Ўқув-методик кенгаш котибаси

Тоирова Г.И.